Xorazm yo'llari uchun Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash (EITB):

I jild – Notexnik hisobot

Buyurtmachi: O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AVTOMOBIL YO'LLARI DAVLAT QO'MITASI

Sana: 2023-yil may

“Juru Energy Ltd.”
1-Ofis binosi, Uan Jorj Yard, London
Birlashgan Qirollik, EC3V 9DF
T: +44 207 859 4028

Hujjat haqida ma'lumot

Loyiha nomi	Xorazm yo'llari uchun Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash (EITB):
Hujjat nomi	Notexnik hisobot
Juru Energy loyihasiga havola	UZB-EBRD-Khorezm roads
Buyurtmachi	O'zbekiston Respublikasi Avtomobil Yo'llari Davlat Qo'mitasi
Loyiha menejeri	Nik Skinner
JE loyihasi koordinatori	Viktoriya Filatova
JE loyihasi Direktori	Jushkinbek Ismailov

Hujjat aylanmasini boshqarish

Nashr	Nashr sanasi	Nomi	Muallif	Taqrizchi	Tasdiqlovchi
1.0	2023-yil 8-may	Ko‘rib chiqish uchun uchun hujjat loyihasi	Har xil	Viktoriya Filatova	Nik Skinner

<u>Voz kechish:</u>

Ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash hisoboti: Notexnik hisobot (“Hisobot”) Juru Energy tomonidan tayyorlangan. Hisobotdagi ma’lumotlar joriy holatni aks ettirsa-da, Juru Energy ushbu Hisobotda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi yoki to‘liqligi to‘g‘risida aniq yoki nazarda tutilgan hech qanday bayonot yoki kafolat bermaydi va noto‘g‘ri yoki ko‘rsatilmagan ma’lumotlar uchun javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi.

Ushbu Hisobot faqat O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi (YQ) uchun tayyorlangan. YQ ushbu Hisobotda keltirilgan ma’lumotlarning to‘g‘riligi yoki to‘liqligi to‘g‘risida aniq yoki nazarda tutilgan hech qanday bayonot yoki kafolat bermaydi. YQ ushbu Hisobotdagi ma’lumotlarning birortasini mustaqil ravishda tasdiqlamagan va undagi har qanday ma’lumot, noto‘g‘ri yoki ko‘rsatilmagan ma’lumotlar uchun hech qanday javobgarlikni o‘z zimmasiga olmaydi. Hisobot YQ mulki bo‘lib qoladi.

Mundarija

Hujjat haqida ma'lumot **2**
Rasmlar mundarijasi ... 3
Jadvallar mundarijasi ... 3
Qisqartmalar ro‘yxati ... 4
1. Kirish **5**
1.1 Loyiha haqida umumiy ma’lumot ... 5
1.2 Notexnik hisobotning maqsadi ... 6
1.3 Notexnik hisobot tarkibi ... 6
2. Loyiha ta’rifi **6**
2.1 Loyihaga bo’lgan ehtiyoj ... 6
2.2 Loyihaning joylashuvi ... 7
2.3 Loyihaning muqobil variantlari ... 7
2.4 Mavjud xususiyatlar ... 9
2.5 Ishlar hajmi ... 9
2.6 Loyiha bosqichlari ... 9
2.6.1 Loyihalash bosqichi ... 9
2.6.2 Qurilish-oldi bosqichi ... 10
2.6.3 Qurilish bosqichi ... 10
2.6.4 Ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish bosqichi ... 11
3. Siyosat, qonunchilik va institutsional asos **11**
3.1 Milliy ETB qonunlari ... 11
3.2 Kreditorlar talablari ... 11
4. Ta'sirni baholash metodologiyasi **12**
4.1 Yumshatish choralari, kuchaytirish va monitoring ... 13
4.2 Qoldiq ta’sirlarning ahamiyati ... 13
5. Ekologik va ijtimoiy ta'sirlar va ularni yumshatish chora-tadbirlari haqida qisqacha ma'lumot **14**
6. Ekologik va ijtimoiy boshqaruv **31**
6.1 Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi ... 31
6.2 Mas'ul organlar haqida qisqacha ma’lumot ... 31
6.3 Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi ... 32
7. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish va shikoyatlarni hal qilish mexanizmi 32
7.1 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish ... 32
7.2 Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi ... 33
8. Xulosa **33**

Rasmlar mundarijasi

1-rasm: Loyihaning O'zbekistondagi joylashuvi ... 5
2-rasm: Loyiha yo'lining joylashuvi ... 8
2-rasm: Ta'sirni baholash jarayoni ... 12

Jadvallar mundarijasi

1-jadval: Loyihada ko'zda tutilgan tavsiya etilgan ishlar ro'yxati ... 9
2-jadval: EITB xulosasi ... 14
3-jadval: Loyihani qo’llab-quvvatlovchi va mas'ul tashkilotlar ... 31

Qisqartmalar ro‘yxati

Qisqartma	Ta'rifi
AMSX	Atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik
CAREC	Markaziy Osiyo mintaqaviy iqtisodiy hamkorligi
dB	Detsibel
EIBR	Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi
EIBT	Ekologik va ijtimoiy boshqaruv tizimi
EIS	Ekologik va ijtimoiy siyosat
EITB	Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash
ETB	Ekologik ta'sirni baholash
IO‘XdB	Iqlim o'zgarishi xavfini dastlabki baholash (dB)
IXSA	Ilg’or xalqaro sanoat amaliyoti
JBG	Jahon Banki Guruhi
JE	Juru Energy
MHR	Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi
MMX	Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik
NTH	Notexnik hisobot
ShHM	Shikoyatlarni hal qilish mexanizmi
TIA	Texnik-iqtisodiy asoslash
YeOTTM	Yerni olib qo’yish va tirikchilik manbalarini tiklash mexanizmi
YeTTB	Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki
YQ	O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi

1. Kirish

1.1 Loyiha haqida umumiy ma’lumot

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (“YeTTB” yoki “Bank”) O‘zbekiston Respublikasining Xorazm viloyatidagi Urganch va A380 avtomobil yo‘li o‘rtasidagi mavjud 4R156 yo‘lining 81 kilometrga yaqin uchastkani ta’mirlashni ("Loyiha") moliyalashtirish uchun O‘zbekiston Respublikasi Avtomobil yo‘llari davlat qo‘mitasi (YQ)ga suveren kredit ajratish imkoniyatini ko‘rib chiqmoqda. 1-rasmda yo‘lning O‘zbekiston hududidagi joylashuvi ko‘rsatilgan.

1-rasm: Loyihaning O'zbekistondagi joylashuvi



Loyihaning maqsadlari quyidagilardan iborat: a) mahalliy yo'llar tarmog'ining iqlim o'zgarishiga chidamliligini oshirish (iqlim o'zgarishini yumshatish, iqlim o'zgarishiga moslashish va boshqa ekologik manfaatlarni faol tarzda ko’zlash orqali), b) mahalliy iqtisodiyot va jamoalarga ijobiy ta'sir ko'rsatish imkoniyatlarini optimallashtirish (ulanishni yaxshilash - yo’ldagi vaqtini qisqartirish, yo'l foydalanuvchilari xarajatlarini kamaytirish, ichki savdoni oshirish va viloyatda ish o'rinlarini yaratishga hissa qo'shish orqali), c) barcha foydalanuvchilar uchun yo'l harakati xavfsizligini yaxshilash imkoniyatlarini optimallashtirish va d) texnik me’yorlarga, shu jumladan O‘zbekiston Prezidenti qarorlariga rioya qilish.

YeTTBning Ekologik va ijtimoiy siyosatiga (ESP 2019) asoslanib, loyiha “A” toifasiga kiritildi, bunga ko’ra, Loyihaning keng qamrovli Ekologik va ijtimoiy ta’sirni baholash (EITB) o’kazilishi, va undan so‘ng asosiy hujjatlar kamida 120 kun davomida jamoatchilikka oshkor etilishi shart. Ushbu talab Yevropa ittifoqining Ekologik ta’sirni baholash Direktivasining I ilova loyihalari talablariga mos keladi. Loyihaning EITB hisoboti quyidagicha tashkil etilgan:

- I jild: Notexnik hisobot (mazkur hujjat)
- II jild: Ekologik va ijtimoiy ta'sirni baholash (EITB)
- III jild: Texnik qo'shimchalar
- IV jild: Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (EIBR)

- V jild: Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi (MHR)
- VI jild: Yerni olib qo'yish va tirikchilik manbalarini tiklash mexanizmi (YeOTTM)

YeTTB EIHR va ETTBning qo'llab-quvvatlovchi Ishlash talablari (IT) asosida Loyiha uchun EITBni amalga oshirish uchun Juru Energy Ltd. (JE) kompaniyasini tayinladi. Loyiha O‘zbekiston qonunchiligi va ruxsat beruvchi talablariga muvofiq atrof-muhitga ta’sir etuvchi alohida milliy baholashdan (milliy ETB 1-bosqichi) o‘tgan.

1.2 Notexnik hisobotning maqsadi

Ushbu NTHning maqsadi yuqorida ko'rsatilgan hisobotlarda keltirilgan ma'lumotlarni aniq va sodda tarzda taqdim etishdan iborat. Hisobotda jamoatchilik uchun Loyiha, jumladan EITB natijalari, ijobiy va salbiy ekologik va ijtimoiy ta’sirlarni bartaraf etishga yo’naltirilgan boshqaruv harakatlari, Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish va Shikoyatlar haqida ma’lumotlar taqdim etiladi.

1.3 Notexnik hisobot tarkibi

Ushbu hisobot quyidagicha tuzilgan:

- Loyiha ta’rifi;
- Taklif etilayotgan loyihaga taalluqli siyosat/qonunchilik bazasi haqida umumiy ma’lumot
- Loyihaning ekologik va ijtimoiy ta'siri haqida qisqacha ma’lumot va ta'sirlarni boshqarish uchun taklif qilingan yumshatish choralari
- Loyihaning loyihalash, qurish va ekspluatatsiya bosqichlari uchun Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (EIBR) haqida ma'lumot
- Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish rejasi va Shikoyatlarni ko’rib chiqiish mexanizmi haqida umumiy ma'lumot

2. Loyiha ta’rifi

2.1 Loyihaga bo’lgan ehtiyoj

Xorazm viloyati O‘zbekistonning g‘arbiy qismida - Turkmaniston chegarasida joylashgan. Viloyat aholisi qariyb 1,7 million kishini tashkil etadi, ularning 150 ming nafari viloyatning ma’muriy markazi - Urganch shahrida, 400 ming nafari - yirikroq shaharlarda, qolgan 70 foizi esa qishloq joylarda istiqomat qiladi. Urganch Toshkentdan 700 kilometr uzoqlikda joylashgan.

Viloyatdagi avtomobil yo‘llari tarmog‘ining umumiy uzunligi 2210 kilometr bo‘lib, 113 kilometrli xalqaro yo‘l, 706 kilometrli respublika va 1391 kilometrlimahalliy yo‘llarni o‘z ichiga oladi. Ushbu yo‘llarga YQ tomonidan texnik xizmat ko’rsatiladi, umumiy foydalanishdagi mahalliy yo‘llarga esa Viloyat hokimligi tomonidan texnik xizmat ko’rsatiladi.

Quyidagilardan kelib chiqib, Viloyatdagi respublika ahamiyatiga molik magistrallar kommunikatsiyalarda muhim o‘rin tutadi:

- ichki va viloyatlar o’rtasida bog’lanishni ta'minlash;
- barqaror iqtisodiy o'sish va ichki, viloyatlararo va tashqi savdoning hajmining o'sishiga ko'maklashish;
- transport xarajatlarini kamaytirish va sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetkazib berish vaqtini qisqartirish, yuk va yo'lovchilar tashish hajmini oshirish

Ichki harakatchanlik va mintaqaviy rivojlanish uchun zarur bo'lgan mintaqaviy yo'l tarmog'i 1950-60-yillarda qurilgan va davriy texnik xizmat ko'rsatishning yetarli emasligi va transport oqimining ortishi tufayli ta'mirlanishi lozim. Bundan tashqari, hudud iqlim o'zgarishi sababli ortib borayotgan xavflarga duch kelmoqda; suv toshqini va yuqori harorat Xorazm viloyatining avtomobil Yo'llari Tarmog'iga xavf tug'dirishi aniqlangan. Ushbu iqlim xavf-xatarlari yomon yo'l holati bilan birgalikda ob-havo bilan bog'liq zarar va yo'l tarmog'ining aktivlari va faoliyatiga to'sqinlik qilish ehtimolini oshirishi mumkin.

2019 yilda O'zbekiston Hukumati tomonidan 2030 yilgacha bo'lgan davrga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining transport tizimini rivojlantirish strategiyasi ishlab chiqilgan bo'lib, uning asosiy maqsadi davlat iqtisodiyoti, aholi va tadbirkorlik subyektlarining ehtiyojlarini to'liq qondirish maqsadida yagona transport tizimini shakllantirish va transport infratuzilmasidan foydalanish samaradorligini oshirishdan iborat. Loyiha, 2022 — 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi, ya'ni 36-maqsadi bilan hamohangdir: "*Barcha transport turlarini uzviy bog'lagan holda yagona transport tizimini rivojlantirish, yirik shaharlar o'rtasida kunlik transport qatnovlari asosida manzilga yetib borish va qaytib kelish imkoniyatini yaratish*".

2.2 Loyihaning joylashuvi

Loyiha Yo'lining katta qismi O'zbekistonning Xorazm viloyatida, kichik qismi esa Qoraqalpog'istonda joylashgan. Yo'l mavjud 4R156 (A380 Urganch shahri – Xonqa – Bog'ot – Xazorasp – Amudaryo yo'li) yo'lining 84 kmdan taxminan 81 kmni qamrab oladi (2-rasmga qarang).

Loyiha Urganch shahridagi 4R156g va Amudaryodan o'tuvchi 4K975 yo'llari tutashgan joyidan A380 avtomobil yo'li bilan tutashgan 2 kmdan boshlanadi.

2.3 Loyihaning muqobil variantlari

Loyiha YeTTB va YQ uchun 2021 yilda tayyorlangan bosqichma-bosqich texnik-iqtisodiy asoslash (TIA) hulosalari asosida tanlandi.[1] TIAda to'qqizta potentsial yo'l bilan bog'liq loyiha chora-tadbirlar (rekonstruktsiya va kapital ta'mirlash) baholandi[2]. Xavfsizlik, ijtimoiy va ekologik mezonlarini o'z ichiga olgan ko'p mezonli baholash (KMB) natijalariga asoslanib, Loyihaning Yo'li "Ustuvor sxema" sifatida tanlandi.

1 Xorazm yo'llari loyihasining texnik-iqtisodiy asoslashi. Arup. 2022 yil aprel

2 Rekonstruktsiya uchun yuqoriroq texnik daraja, yirik infrastruktura sxemasi talab qilinadi. Ushbu ishlar ekspluatatsion hususiyatlar va ko'rsatkichlarni yaxshilashga qaratilgan bo'lib, uni natijasida ishonchlilik va yo'l foydalanuvchilari uchun qulaylik yanada oshadi. Kapital ta'mirlash infratuzilmani ekvivalent asosda, shu jumladan yo'l qoplamasini qayta tiklash (ekvivalent materiallar bilan) va boshqa aktivlarni mavjud standartga muvofiq ta'mirlashni o'z ichiga oladi.

2-rasm: Loyiha yo'lining joylashuvi



2.4 Mavjud xususiyatlar

TIA[3] loyihasi va maydoncha tekshiruvlari davomida Jamoa kuzatuvlariga ko‘ra yo‘l qoplamasining holati yomonligi qayd etilgan. Mavjud qoplama transport vositalarining xavfsiz va samarali harakatlanishiga to‘sqinlik qilmoqda va yo‘l-transport hodisalariga sabab bo‘lmoqda. Piyoda yo’laklari va yo’l belgilari hamma joyda o’rnatilmagan, aksariyat o’rnatilgan belgilarning holati esa qoniqarsiz. Yo’lning o’qi bo'ylab tarkibida asbestos mavjud bo’lgan materiallar uchrashi mumkin (quvurlar asbestos mavjudligi taxmin qilindi).

2.5 Ishlar hajmi

Yo‘lning turli qismlari uchun to‘rt turdagi ko’ndalang loyiha qo‘llanilishi kutilmoqda. Yo‘lning kengligi 65m gacha kengaytiriladi. Shahar hududlarida yo‘lning qatnov qismining har bir tomonida piyodalar va velosiped yo‘lkalari, shuningdek, bo‘sh joy mavjudligiga qarab yo‘lning qatnov qismining bir yoki har bir tomonida yangi mahalliy kirish yo‘li bilan to‘ldiriladi. Bundan tashqari, yo'lga ko'cha yoritgichlari o’rnatiladi. Aholi yashash punktlari tashqarisida qolgan hududlarda yo'lning qatnov qismi har bir tomonida faqat mustahkamlangan yo’l cheti bilan to'ldiriladi. Ham shahar, ham qishloq hududlarida yo'lning qatnov qismi cheti bo‘ylab drenaj tizimi yotqiziladi. Yo'lni rekonstrukstiya qilishning dastlabki loyiha bo'yicha taklif qilingan ishlarning hajmi quyidagi jadvalda keltirilgan:

1-jadval: Loyiha doirasida taklif etilgan ishlar ro'yxati

Parametr	Taklif qilingan loyiha
Yo’l qoplamasi	Yo’l qoplamasini yangilash
Drenaj tizimi	Drenaj tizimini ta'mirlash
Ko‘priklar	Mavjud 50 ta ko'prik ta’mirlanadi yoki quriladi: • 47 ko'prik kengaytirilishi kerak; • 1 ko'prikni o’rniga yangi ko'prikni qurish kerak; • 2 ko'prikga texnik xizmat ko'rsatish kerak.
Yer usti piyodalar o’tish joylari va chorrahalar	3 ta yer usti piyodalar o’tish joyini qurish kerak
Platforma tarozilar	2 ta transport vositalarining og’irligini o’lchash stantsiyasini qurish
Yo'l kesishmasi	A380 milliy magistral yo'li bilan 4R156 ning mavjud kesishmasi yangilanadi
Yo'l belgilari	Yo'l belgilarini tiklash/o'rnatish
Ko'cha yoritgichlari	Svetofor va elektr yoritgichlarini o'rnatish
Obodonlashtirish	Loyiha doirasida yo'llarining ikki tomonida yashil hududlar barpo etiladi
Muhandislik kommunikatsiyalari	Mavjud elektr liniyalari, aloqa liniyalari va gaz quvurlarini rekonstruktsiya qilish
Yo'l harakati xavfsizligi	Yo'lning dastlabki loyihasi davlat standartlariga to'liq javob beradi

2.6 Loyiha bosqichlari

2.6.1 Loyihalash bosqichi

Loyihaning dastlabki dizayn va loyihalash bosqichida berilgan hudud chuqur tahlil qilingan edi. Jumladan, yo‘lning turli dizayn variantlari baholangan, eng amaliy va samarali yondashuv aniqlangan va xarajatlar tahlil qilingan edi.

3 Xorazm yo'llari loyihasining texnik-iqtisodiy asoslanishi Arup. 2022 yil aprel

Loyihaning yakuniy dizayn va loyihalash bosqichida esa, muhandislik, shaharsozlik va texnik yechimlarini o'z ichiga olgan batafsil dizayn konsepsiyalari ishlab chiqiladi. Loyihaning yakuniy dizayni tartibga soluvchi davlat organlaridan olingan barcha qonuniy tasdiqlari va ruxsatnomalarini, shunungdek, EITB natijalarini hisobga olgan holda tuziladi.

Bundan tashqari, ushbu bosqichda qurilish jarayonida ishlatiladigan materiallar, qurilish texnikasi va sifat standartlari kabi texnik xususiyatlar belgilanadi, shuningdek, Loyihaning barcha tarkibiy qismlarining aniq joylashuvi tasdiqlanadi.

2.6.2 Qurilish-oldi bosqichi

Qurilishdan oldingi bosqichda amalga oshirilishi kerak bo'lgan tadbirlar quyidagilardan iborat (bular bilan cheklanmagan):

Yerni olib qo‘yish - YeTTB krediti shartlariga ko'ra, qurilish ishlari boshlanishidan oldin Ish beruvchi Ko'chib o'tish rejasini tayyorlashi, YeTTBning roziligini olishi, so’ngra rejani amalga oshirishi va yerni olib qo’yishi kerak.

Servitutni belgilash - Servitutni olish jarayoni servitut hududida qurilish ishlarini boshlashdan oldin to'liq tugatiladi.

Loyiha maydonini tozalash ishlari - Servitut va unga tutash hududlarda maydonchani tozalash va kundakov ishlaridan iborat.

Mavjud kommunikatsiya tizimlarini ko'chirish - Servitut hududidagi qurilish ishlariga ta'sir ko'rsatuvchi barcha kommunikatsiya tizimlarini, shu jumladan suv omborlari, elektr ta'minoti liniyalari, quvurlar va yer osti kabellarini ko'chirish.

Qurilish lagerini tashkil etish - 4R156 yo’li bo'ylab ikkita vaqtinchalik qurilish lageri tashkil etilishi kutilmoqda: birinchisi - Xonqa shahri yaqinida, ikkinchisi esa - Xazorasp shahri yaqinida.

2.6.3 Qurilish bosqichi

Qurilish bosqichining asosiy jihatlari quyida batafsil yoritilgan.

Yer ishlari – Bu ishlarga loyiha yo'lini qurish uchun zarur bo'lgan yer ishlarining quyidagi turlari va barcha tegishli ishlar kiradi:

- Tuproqning yer ustki qatlamini olib tashlash.
- Tuproq devorlarni qurish.
- Yer ko‘tarmasini qurish.
- Nomaqbul materiallarni olib tashlash va almashtirish.
- Konstruktiv qazish ishlari.
- Bo’ylama drenaj va kesisishuvchi drenaj inshootlarni qurish uchun yer qazish.
- Mavjud kommunal tarmoqlarni olib tashlash va ko'chirish uchun qazish ishlari.
- Bo’ylama drenajlar va eroziyadan himoya qilish ishlari.

Suv o‘tkazish quvurlari va drenaj inshootlari - Loyiha ishlari suv o'tkazgich quvurlari va drenaj tizimining tarkibiy qismlarini qurishni o'z ichiga oladi.

Yo‘l qoplamasi - pastki qatlam tayyorlangach, yo‘l qoplamasi yotqiziladi.

Materiallar bilan ta'minlash - Loyiha TIAsida ko'rsatilganidek, qurilish ishlari uchun materiallar eng yaqin karyerlar va yetkazib beruvchilardan yetkazib berilishi kutilmoqda.

Suv ta'minoti - Qurilish bosqichida ichimlik suvi va boshqa ijtimoiy tadbirlar uchun ichimlik suvi Urganch shahridagi shahar suv ta'minoti tizimidan olinishi kutilmoqda. Aniq talablarni aniqlash kerak.

Buzilgan materiallarni yo'q qilish - Yo'l qoplamasining demontaj qilingan qatlamlari texnik jihatdan imkoni boricha qayta ishlatiladi, aks holda ruxsat etilgan chiqindi tashlash joylariga olib tashlanadi.

Ishchilar uchun turar joy - Viloyat yoki mamlakat tashqarisidan kelgan barcha malakali ishchilar mavjud qulay turar joy yoki vaqtinchalik qurilish lageriga joylashtirilishi kutilmoqda.

2.6.4 Ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish bosqichi

Loyihaning ekspluatatsiya bosqichda texnik xizmat ko‘rsatish ishlari YQning hududiy bo‘limi tomonidan amalga oshiriladi.

3. Siyosat, qonunchilik va institutsional asos

3.1 Milliy ETB qonunlari

Milliy ETB tartibi quyidagilar bilan tartibga solinadi:

- O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik ekspertiza to‘g‘risida”gi qonuni (2000 y.); va
- Vazirlar Mahkamasining “Ekologilk ta’sirni baholash mexanizmini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi 541-son qarori bilan tasdiqlangan “Davlat ekologik ekspertizasi to‘g‘risida”gi nizom (2020-yil).

O‘zbekiston Respublikasi davlat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo’mitasi ning “Davlat ekologik ekspertizasi markazi” davlat unitar korxonasi atrof-muhitga ta'sir ko’rsatishning I va II toifalari (yuqori va o’rtacha xavfli) deb tasniflangan xo’jalik faoliyati obyektlarining ETBning davlat ekologik ekspertizasini o’tkazadi.

O'zbekistonda Milliy ETBlar doirasida quyidagi uch bosqichdan iborat bo’lgan Atrof-muhitni muhofaza qilish organining ruxsati[4] olinadi:

- I bosqich - ETB bo'yicha dastlabki hisobot - boshlang'ich va majburiy bosqich;
- II bosqich – Ekologik ta'sirlar to'g'risidagi bayonot majburiy bo'lmagan bosqich bo'lib, agar mahalliy tartibga soluvchi organ ETB bo'yicha dastlabki hisobotda keltirilgan baholashdan qoniqsa, uni tayyorlash shart emas.
- III bosqich – Ekologik oqibatlar to'g'risidagi bayonot - qurilish/rekonstruktsiya ishlari tugaganidan so'ng, loyihani ishga tushirishdan oldin tayyorlanishi va tartibga soluvchi organga taqdim etilishi kerak bo'lgan yakuniy bosqich va hujjat.

Hozirda Loyihaning ETB bo'yicha dastlabki hisoboti tegishli organga taqdim etilgan va ko'rib chiqilmoqda.

3.2 Kreditorlar talablari

Loyiha YeTTBning quyidagi hujjatlarda ko’rsatilgan ekologig va ijtimoiy talablarini bajarishi shart:

4 I/II bosqich uchun qurilishni boshlash uchun O‘zbekiston Respublikasi davlat ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish qo’mitasi dan ijobiy xulosa olish kerak, III bosqich uchun esa loyihani ishga tushirish uchun ijobiy xulosa olish shart.

- Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankining (YeTTB) Ekologik va ijtimoiy siyosati (2019yil) (EIS 2019);
- YeTTBning ishlash talablari (IT)[5]:
    - IT1 – Atrof-muhit va ijtimoiy xavf va ta'sirlarni baholash va boshqarish;
    - IT2 – Mehnat va mehnat sharoitlari;
    - IT3 – Resurslar samaradorligi va ifloslanishning oldini olish va nazorat qilish;
    - IT4 – Salomatlik, xavfsizlik va himoyalash;
    - IT5 – Yerni olib qo‘yish, yerdan foydalanishni cheklash va majburiy ko‘chirish;
    - IT6 – Biologik xilma-xillikni saqlash va tirik tabiiy resurslarni barqaror boshqarish;
    - IT7 – Mahalliy xalqlar;
    - IT10 – Axborotni oshkor qilish va manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish.

- Jahon banki guruhining (JBG) Atrof-muhit, salomatlik va xavfsizlik (AMSX) bo'yicha ko'rsatmalari, jumladan:
    - to'rtta sohani, yani atrof-muhit, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik (MMX), aholining salomatligi va xavfsizligi (ASX); qurilish va foydalanishdan chiqarishni qamrab oluvchi JBG AMSX bo’yicha umumiy ko'rsatmalari (2007 yil aprel); va
    - Elektr energiyasini uzatish va taqsimlash bo'yicha JBG AMSX ko’rsatmalari (2007 yil aprel).

Shuningdek, Loyiha ilg’or xalqaro sanoat amaliyoti (IXSA) va Yevropa Ittifoqining tegishli atrof-muhit standartlariga rioya qilishi shart.

4. Ta'sirni baholash metodologiyasi

Ushbu EITB ta'sirni baholash jarayonida belgilangan formatga amal qiladi. Ushbu format quyidagi sxemada ko'rsatilgan va quyidagi matnda batafsil bayon etilgan.

3-rasm: Ta'sirni baholash jarayoni



Birinchidan, Loyihaning asosiy ekologik jihatlari qayd etiladi. Ekologik jihat - bu loyihaning atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir qiladigan har qanday faoliyati. Loyihaning asosiy jihatlari aniqlanganidan so'ng, Loyihaning ta'sir ko’rsatish hududi ichidagi har qanday sezgir retseptorlar (aholi, daryolar, yer osti suvlari, qushlar va boshqalar) qayd etiladi. So‘ngra, aniqlangan jihatlarning potentsial ta'siri va ular aniqlangan retseptorlarga qanday ta'sir qilishi

[5] YETTBning EIS (2019 yil) va Ishlash Talablari

(masalan, mahalliy qishloq aholisiga ta'sir qiladigan asfaltlanmagan yo'lda chang hosil qiluvchi qurilish avtomobilining harakati) qayd etiladi. Undan keyin, ta'sir ahamiyatini baholash jarayoni amalga oshiriladi, u ikkita maqsadga xizmat qiladi: birinchidan, ruxsat olish jarayonida e'tiborga olinishi kerak bo'lgan muhim ta'sirlarni ajratib ko'rsatishga yordam beradi. Ikkinchidan, yuqorida ta'riflanganidek, ta'sir ahamiyatini baholash uchun foydalaniladigan asosiy ta'sir xususiyatlarini ko'rsatishga xizmat qiladi.

4.1 Yumshatish choralari, kuchaytirish va monitoring

Yumshatish choralari qurilishning salbiy ta'sirlarni nazorat qiladi, kamaytiradi, bartaraf qiladi va potentsial foydali ta'sirini kuchaytiradi. Har bir mavzuning yumshatish bo'limida yumshatish ierarxiyasiga muvofiq taklif qilingan yumshatish choralari belgilangan. Ta'sirni yumshatish va boshqarish choralari Loyihaning ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasida (Loyihaning EIBR) (IV jild) umumlashtirilgan. Ba'zi hollarda, Loyiha bilan bog'liq yumshatish choralari yoki omillarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishini tekshirish uchun ham monitoring talab qilinadi.

4.2 Qoldiq ta’sirlarning ahamiyati

Qoldiq ta'sirlarning ahamiyatini aniqlashda loyihalash yoki joylashtirish jarayonida Loyiha tomonidan qabul qilingan har qanday yumshatuvchi chora-tadbirlar hisobga olinadi, shuningdek, bu ahamiyat o'zgarishlar darajasi va davomiyligi, ta'sirga uchragan odamlar soni yoki resurs hajmi va ularning o'zgarishlarga sezgirligiga bog'liq bo'ladi. Yumshatishdan keyingi davrda katta yoki o'rtacha ahamiyatga ega deb belgilangan qoldiq ta'sirlar ahamiyatga ega ta'sirlar toifasiga kiritiladi.

5. Ekologik va ijtimoiy ta'sirlar va ularni yumshatish chora-tadbirlari haqida qisqacha ma'lumot

Potentsial ta'sirlar va qoldiq xavf ahamiyati EITBda ko'rsatilgan taklif qilingan yumshatish chora-tadbirlari asosida baholandi. EITB natijalari 2-jadvalda jamlangan.

2-jadval: EITB natijalari

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
Havo sifati	Qurilish jarayoni chiqindi gazlar, chang, qurilish uskunalaridan chiqadigan hidlar, uchuvchi organik birikmalar chiqindilari kabi ta'sirlarni keltirib chiqaradi. Ekspluatatsiya bosqichida havo ifloslanishining asosiy manbai avtomobil yo'lida harakatlanadigan transport vositalari bo'ladi. Chang yoki nazorat qilinmaydigan chiqindilarning ko'payishi mahalliy havo sifatiga hamda ishchilar yoki aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Sog'liqqa yetkaziladigan ta'sirlarga changning ko'z va og'izga tushishi (ishchilar, aholi), atmosferada zarralarning ko'payishi, mahalliy ekologiyaga va tegishli sun'iy mahalliy obyektlar joylashgan joylarga ta'sir qiluvchi sirt ifloslanishidan kelib chiqadigan qo'zg'atgichlar kiradi.	**<u>Loyihalashtirish bosqichi</u>** • Yo'l cheti izolyatsiyalangan qoplama bilan qurilishi kerak. **<u>Qurilish- oldi bosqichi</u>** • Ifloslanishning oldini olish rejasiga loyihaning qurilish bosqichida havo ifloslanishini cheklash bo'yicha chora-tadbirlar kiritiladi. • Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik rejasiga havoga zaharli ifloslantiruvchi moddalarni tasodifiy chiqarish bo'yicha chora-tadbirlar kiritiladi. • Qayta tiklanuvchi energiya manbalari (quyosh) va kam chiqindi ishlab chiqaruvchi generatorlardan foydalanishga e'tibor qaratish lozim. • Loyiha obyektlari va uskunalari maydonlar sezgir retseptorlardan imkoni boricha uzoqda joylashtiriladi. **<u>Qurilish bosqichi</u>** • Yoqilg'i samaradorligini oshirish va chiqindilarni minimallashtirish maqsadida uskuna va transport vositalariga ishlab chiqaruvchining tavsiyalariga muvofiq muntazam texnik xizmat ko'rsatiladi. • Asosiy qurilish zonalari va yuk tashish yo'llarida, lagerga kirish va qurilmalardan 500 m masofada changga qarshi choralar ko'riladi.	Ahamiyatga ega emas Past (chang)

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	Sezgir retseptorlar yaqin atrofdagi aholi yashash punktlari (qurilish va ekspluatatsiya bosqichlari) va mahalliy ishchilar (qurilish bosqichi) bo'ladi.	• Potensial gaz chiqindilari hosil bo'ladigan maydonlarda saqlanadigan va foydalaniladigan xavfli materiallar yaxshi shamollatiladigan, ammo xavfsiz past xavfli hududlarda, asosiy transport yo'llaridan va maydoncha chegarasidan uzoqda (iloji bo'lsa) saqlanadi. • Qurilish bosqichi uchun monitoring talablari sanitariya inshootlari va xavfli materiallar omborlarini tekshirish, shuningdek, havo sifati monitoringini o'z ichiga oladi. **Ekspluatatsiya bosqichi** • Yo'l bo'ylab havo sifatining muntazam monitoringi	
Iqlim o'zgarishi	Iqlim o'zgarishi xavfini dastlabki baholash (IO'XdB) hisobotida 4R156 yo'lining butun ekspluatatsiya muddati davomida iqlim o'zgarishidan kelib chiqadigan quyidagi qoldiq xavflar (dastlabki loyihalash choralarini hisobga olgan holda) aniqlandi: • Yuqori haroratning prognoz qilinayotgan o'zgarishlaridan yo'l uchun yuqori darajali xavf. • Kuchli shamollar, haddan tashqari yog'ingarchilik, suv toshqinlari (daryo), yer usti suvlar toshqini, eroziya va o'rmon yong'inlarining prognoz	**Loyihalashtirish bosqichi** • Batafsil loyihalash bosqichida keyingi gidrologik baholash va iqlim o'zgarishi xavfini baholash asosida ariq va suv o'tkazish quvurlarni sig'imini oshirish. • Loyihada yer osti suvlari oqimining potentsial ortishi va ularning qoplamalar barqarorligiga ta'siri hisobga olinishini ta'minlash. • Yo'lga axlat tushishi natijasida yuzaga keladigan tiqilib qolishni kamaytirish maqsadida, suv o'tkazish quvurlarda axlatni ushlab qoluvchi panjaralardan foydalanish masalasini ko'rib chiqish. • Kelajakdagi prognozlar asosida suv oqimining ortishini hisobga olgan holda, tegishli o'lchamdagi moyni ushlab qoluvchi konteynerli ko'prik drenaj tizimlarini qurish. • Qoplama va inshootlar uchun yuqori haroratga chidamliligini ko'rsatgan materiallarni tanlash va ko'rib chiqish. • Ko'rinishni yaxshilash va qoplamadagi belgilarning joylarini belgilash. **Qurilish bosqichi**	Ahamiyatga ega emas Past (haddan tashqari yog'ingarchilik, suv toshqini)

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	qilinadigan o'zgarishi natijasida yo'l uchun o'rtacha darajali xavf. • Past haroratlarda prognoz qilinadigan o'zgarishlardan yo'l uchun past darajali xavf. Yo'l infratuzilmasi, jumladan, yo'l qoplamasi (barcha qatlamlar) va u bilan bog'liq drenaj inshootlari iqlim o'zgarishi ta'siriga sezgir.	• Barqarorlikni oshirish uchun barcha tuproq devorlari o'rnatilishini ta'minlash. **Ekspluatatsiya bosqichi** • Haddan tashqari yog'ingarchilik yoki suv toshqini hodisalari xavfiga uchrashi mumkin deb aniqlangan inshootlarning (shu jumladan, drenaj inshootlari) texnik holatini tekshirish. • Haddan tashqari yuqori harorat davridan keyin xavfga uchrashi mumkin deb aniqlangan qoplama yuzasi va inshootlarning texnik holatini tekshirish.	
Tuproqlar	Qurilish bosqichida tuproqqa potenstial ta'sirlar quyidagilardan iborat: • Tuproqning yer ustki qatlamining shikastlanishi va/yoki yo'qolishi. • Eroziya. • Qurilish lagerlaridan xavfli suyuqliklarning to'kilishi va sizib chiqishi natijasida tuproq ifloslanishi. • Tuproq karyerlarini ekspluatatsiya qilish. • Ifloslangan yer uchastkalari. Ekspluatatsiya bosqichida tuproqqa potentsial ta'sirlar quyidagilardan iborat:	**Loyihalashtirish bosqichi** • Loyihalashtirishda Loyiha yoqilg'i quyish shoxobchalar xududini egallamasligi, hamda Loyiha va yoqilg'i quyish shoxobchalari chegarasi o'rtasida kamida 5 m bufer zonasi bo'lishini ta'minlash kerak. **Qurilish-oldi bosqichi** • Tuproqning yer ustki qatlamini boshqarish rejasida toproq yer ustki qatlamini olib tashlash tartibi va qoidalari, uymlarni boshqarish, eroziya xavfi va eroziyaga qarshi kurash, oqova suvlarni chiqarib yuborish/boshqa joylarga yo'naltirish va tuproqni himoya qilishning boshqa chora-tadbirlari bayon qilinishi kerak. • Ifloslanishning oldini olish rejasiga to'kilishlarni boshqarish bilan bog'liq maxsus bo'lim kiritiladi. **Qurilish bosqichi**	Ahamiyatga ega emas

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	• Drenaj tizimida tiqilib qolishlar natijasida yuzaga keladigan eroziya va suv toshqini. • Tuproqning muzni eritish tuzi bilan ifloslanishi. • Tabiiy qum harakati natijasida tuproqning qum bilan aralashishi. Loyiha koridoridagi yoki qurilish zonalari yonidagi qishloq xo'jaligi yerlari ushbu ta'sirlarga nisbatan eng sezgir retseptorlar bo'lishi kutilmoqda.	• Tuproq yer ustki qatlamini vaqtincha saqlash uchun joylar ekologik xavfsizlik choralarini hisobga olgan holda tanlanishi kerak. • Ko'priklar va suv o'tkazish quvurlari atrofida joylashtirish uchun eroziyaga kamroq moyil bo'lgan materiallar tanlanadi. • Har qanday vaqtinchalik yonilg'i uchun sig'im yopiq joyga joylashtirilishi kerak. • Ish maydonchasida ta'mirlash/texnik xizmat ko'rsatish/yoqilg'i quyish ishlari cheklanishi shart. • Ish maydonchasida transport vositalari va uskunalar muntazam ravishda sizib chiqish bor-yo'qligini tekshirilishi va barcha sizi chiqish sh joylari darhol ta'mirlanishi kerak. • Ish maydonchasi muntazam ravishda tozalanadi, axlat tashlash taqiqlanadi. **Ekspluatatsiya** • Yo'llarda muzga qarshi ekologik toza yechimlardan foydalanish.	
Gidrologiya	Loyihaning gidrologiyaga asosiy potentsial ta'siri - suvdan foydalanish, suvning turib qolishi, daryo cho'kindilari, qurilish lagerlari/qurilish chiqindilaridan suvning ifloslanishi, yuk mashinalarining moy to'kilishi natijasida ifloslanishdir. Bunday ta'sirlar yer ishlari, qurilish transport vositalarining harakati va ekspluatatsiyasi, ko'chma/statsionar qurilish uskunalarning ishlashi, ko'prik qurilishi ishlari, qurilish lagerlarining	**Loyihalashtirish** • Loyihada daryo tubida ko'prik ustunlari sonini kamaytirish uchun ko'prik oraliqlarini kengaytirish imkoniyatlarini o'rganish kerak. • Daryolar ustidagi ko'priklar loyihasiga moyni ushlab qoluvchi konteynerlarni kiritish kerak. **Qurilish-oldi bosqichi** • Ifloslanishning oldini olish rejasida oqava suvlar (kanalizatsiya) hajmi, olib chiqib tashlash sxemasi, oqizish uchun ruxsatnoma va boshqalar haqida batafsil ma'lumot berilgan. • Ko'prik qurilishi rejasida ko'prik qurilishi jadvali va har bir ko'prik joyi uchun atrof-muhitni muhofaza qilish choralari ko'rsatilgan.	Ahamiyatga ega qoldiq ta'sirlar yo'q

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	faoliyati, tuproq karyerlarni ekspluatatsiya qilish va transport harakati kabi qurilish ishlari natijasida yuzaga kelishi mumkin. Loyiha hududi bir nechta sug'orish kanallari, drenaj kanallari, daryolar va soylarni kesib o'tadi, shuning uchun asosiy sezgir retseptorlar yer usti va yer osti suvlari resurslari, suv yovvoyi tabiati va bu resurslardan foydalanadigan yaqin atrofdagi aholi yashash punktlaridir.	**Qurilish bosqichi** • Yoqilg'i quyish va saqlash choralari. • Avtomobilga texnik xizmat ko'rsatish choralari. • Oqova suvlarni oqizish choralari. • To'kilish va sizib chiqish holatlarida qo'llaniladigan materiallarning mavjudligini ta'minlash. • Chiqindi bilan ishlash bo'yicha ishchilarning bilim va malakasini oshirish. • Suvdan foydalanish (qurilish bosqichida foydalaniladigan suv manbalari va hajmlar ko'rsatilgan Suv xo'jaligi rejasi). • **Ekspluatatsiya bosqichi** • Yo'lning qatnov qismi va yo'l chetlarini tozalash va chiqindilarni olib tashlashni ta'minlash. • Yomg'ir suvini chiqarib yuborish tizimining yaxlitligi va o'tkazuvchanligini saqlash. • Ko'prik qatnov qismining oqova suvlarini tozalash inshootida to'plangan cho'kindilarni saqlash va o'z vaqtida tozalash/olib tashlashni ta'minlash. • Oqova suvlarning ifloslanishini oldini olish uchun yo'l uchastkalari va ko'prik qatnov qismining qoplamasiga texnik xizmat ko'rsatish ishlarini faqat quruq ob-havo sharoitida bajarish.	
Geologik xavflar	Loyiha seysmik faol hududda joylashgan. Loyihati faoliyati geologik xavflarga ta'sir qilishi kutilmaydi, lekin quyidagi	**Loyihalashtirish** • Loyihaning barcha komponentlari loyihalashtirish bo'yicha davlat standartlariga muvofiq ishlab chiqilishini va qurilishini ta'minlash.	Ahamiyatga ega qoldiq ta'sirlar yo'q

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	geoxavflar Loyihaga ta'sir qilishi mumkin: • Seysmik hodisalar • Suv toshqinlari. Ko'priklar va suv o'tkazish quvurlari kabi loyiha inshootlari seysmik faollik tufayli zarar ko'rishi mumkin.		
Biologik xilma-xillik	**Yashash muhitlarining buzilishi** • Amudaryo. Yangi ko'prik qurilishi suv sifatining yomonlashishiga va o'z navbatida yo'qolib borayotgan baliq turlariga salbiy ta'sir ko'rsatishiga olib kelishi mumkin. Bu bir necha yo'l bilan sodir bo'lishi mumkin: • To'qay o'rmoni. Muhofaza qilinishi muhim bo'lgan bir qancha turlar uchun muhim yashash muhiti bo'lgan To'qay o'rmonining dastlabki yo'qolishi taxminan 5,5 ga atrofida bo'lishi mumkin. **Daraxtlarning kesilishi** • Yo'lning kengligi 28 m ga kengaytirilishi 7206 ta manzarali va 2300 dan ortiq mevali daraxtlarga ta'sir qiladi.	**Loyihalashtirish bosqichi** • Muhofaza qilinishi muhim bo'lgan turlar uchun biologik xilma-xillik bo'yicha harakatlar rejasini tayyorlash. • Loyihalashtirish bosqichida yashash muhitlari (masalan, Sherbak gekkonlarning yashash muhiti) va muhofaza qilinishi muhim bo'lgan turlar (Olaquzan) hisobga olinishi kerak. **Qurilish-oldi bosqichi** • Biologik xilma-xillikni boshqarish bo'yicha bir qator umumiy chora-tadbirlar Qurilish-oldi bosqichi uchun Loyiha EIBRda bayon etilgan. • Muhofaza qilinishi muhim bo'lgan yashash muhitidan 2 km masofada tuproq karyerlari, lagerlar yoki yordamchi inshootlar joylashtirmaslik. • Ba'zi daraxtlar xavfsiz masofada qayta ekilishi shart. **Qurilish bosqichi** • Muhofaza qilinishi muhim bo'lgan yashash muhiti ○ Ishchilar bu hududga kirmasligini ta'minlash uchun to'qaylarni qat'iy nazorat qilish ○ Pudratchi Loyiha natijasida yo'qolgan ekvivalent maydonda to'qay o'rmonini qayta tiklash uchun maydonlarni aniqlaydi.	Turli ta'sirlarning ahamiyati darajasi "Ahamiyatga ega emas" dan "Yuqori"gacha

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	Yuqorida aytib o'tilgan ta'sirlarga sezgir retseptorlar quyidagilar hisoblanadi: •O'simlik va hayvonot dunyosi, shu jumladan muhofaza qilinishi muhim bo'lgan turlar • Muhofaza qilinishi muhim bo'lgan ahamiyatga ega baliq turlari •Yo'l chetida ekilgan daraxtlar/ yashovchi aholi • Amudaryo morfologiyasi	○ Ko'prik qurilishi oqibatlarini yumshatish chora-tadbirlarini amalga oshirish • Muhofaza qilinishi muhim bo'lgan turlar ○ O'rta Osiyo toshbaqasini ko'chirish (*Testudo horsfieldii*) ○ Baliq turlari uchun har qanday maxsus yumshatish chora-tadbirlarini amalga oshirish ○ Daraxtlarni kesish O'zbekiston hukumati talablariga muvofiq amalga oshirilishi kerak **<u>Ekspluatatsiya bosqichi</u>** • To'qaylar yashash muhitiga tutashgan yo'l chetidan muntazam ravishda chiqindilarni yig'ish • Ta'sirni yumshatish chora-tadbirlarini amalga oshirish monitoringi.	
Madaniy meros	Loyihaning qurilish ishlari natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ta'sirlar quyidagilardan iborat: • To'rtko'l tumanidagi noma'lum arxeologik yodgorliklarga zarar yetkazilishi. • Qabristonlarning yer maydoni olib qo'yilishi va qabrlar ko'chirilishi. • Yodgorliklarni ko'chirish. • 10 ta qabriston va 11 ta madaniy meros obyekti, shu jumladan yodgorliklar va arxeologik artefaktlar Loyiha ta'siriga sezgirligi aniqlandi.	**<u>Loyihalashtirish bosqichi</u>** • Yo'lni ta'mirlash loyihasini madaniy meros va arxeologik ahamiyatga ega bo'lgan hududlarga to'g'ri kelib qolmasligini oldini olgan holda tuzish. **<u>Qurilish-oldi bosqichi</u>** • Loyiha shartnomasiga madaniy boylik topilmasi topilgan taqdirda harakatlar tartibi to'g'risida talablarni kiritish. • Pudratchidan qazish ishlarini nazorat qilish uchun Loyiha Arxeologini yollashni talab qilish **<u>Qurilish bosqichi</u>** • To'rtko'l tumanida qo'shimcha arxeologik tadqiqotlar olib borish bo'yicha Fanlar akademiyasining Qoraqalpog'iston boshqarmasi bilan muloqotni yo'lga qo'yish.	O'rta/Yuqori

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
		• Madaniy boylik topilmasi topilgan taqdirda harakatlar tartibini o'rnatish. • Madaniy meros obyektlari aniqlangan taqdirda, ularga madaniy boylik topilmasi topilgan taqdirda harakatlar tartibiga muvofiq yo'l tutish kerak. • Qabristonlarga yaqin joylarda Sanitariya-epidemiologiya osoyishtaligi bo'limlari tomonidan har qanday qurilish ishlarini nazorat qilish.	
Shovqin	Potentsial shovqin ta'siriga qurilish uskunalari shovqini va ish joyidagi umumiy shovqin kiradi. Ushbu ta'sirlar qurilish ishlari tufayli yuzaga keladi. Ekspluatatsiya bosqichida avtomobil shovqinidan tashqari bsohqa ta'sirlar kutilmaydi. Loyiha koridorida joylashgan aholi yashash punktlari va ta'lim va sog'liqni saqlash muassasalari loyihaning qurilish va ekspluatatsiya bosqichlarida shovqinga eng sezgir retseptorlarga kiradi. Tijorat obyektlari ham sezgir retseptorlardandir.	**<u>Qurilish bosqichi</u>** • Ishlarni mahalliy aholiga eng kam ta'sir ko'rsatadigan vaqtda bajarilishini ko'zda tutib rejalashtirish kerak. • Sezgir joylarda ishlayotganda vaqtinchalik shovqin to'siqlaridan foydalanish. • Barcha mexanik uskunalardan chiqadigan shovqinni hozirgi texnologiyalardan foydalangan holda ilg'or amaliy vositalar bilan pasaytirish kerak. • Uskunalarga pastroq shovqinli harakat/orqaga qaytish haqida ogohlantirish tizimlarini o'rnatish. • Foydalanilmayotgan vaqtda uskunalarni o'chirish. • Ish bilan bog'liq hech bir yuk mashinasi dvigateli ishlayotgan holda aholi yashash hududi yonidagi ko'chada qoldirilmasligi kerak. • Shovqin darajasi 85 dB(A) dan yuqori bo'lgan hududda ishlaydigan ishchilarni shovqindan himoya qilish to'plamlari bilan ta'minlash. **<u>Kumulativ ta'sirlar</u>** • G'ovakli va bo'sh tolali materiallardan foydalangan holda tovushni izolyatsiya qilish.	Past
Tebranish	Tebranishga olib kelishi mumkin bo'lgan Loyihaning jihatlari yer ishlari, qurilish mashinalari, ko'chma qurilish	**<u>Qurilish-oldi bosqichi</u>** • Tebranish ta'sirida bo'lishi mumkin bo'lgan yo'l trassasidan 20 m masofada joylashgan barcha binolarning holati o'rganiladi.	Ahamiyatga ega qoldiq ta'sirlar yo'q

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	uskunalari, ko'prik qurilishi va qoplama yotqizilishi hisoblanadi. Potensial tebranish ta'siriga quyidagilar kiradi: qurilish uskunalari tebranishi (vibratsiyali katok), qoziqlar o'rnatish, qurilish bosqichida umumiy ish maydonida tebranish va ekspluatatsiya bosqichida avtomobil harakatidan tebranish. Baholash chegarasidagi rezidentlar va inshootlar asosiy tebranishning sezgir retseptorlari hisoblanadi.	• Tebranishlar monitoringi va nazorat qilish tartib-qoidalari batafsil bayon qilingan Qurilishdagi tebranishlarni boshqarish rejasi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. **Qurilish bosqichi** • Oldindan belgilangan nuqtalarda qurilish ishlari natijasida tebranishlarni o'lchash uchun tebranish monitoringi amalga oshiriladi. • Tebranish natijasida yetkazilgan zarar to'g'risidagi da'volar Loyiha shikoyatlarini hal qilish mexanizmi (ShHM) orqali ko'rib chiqiladi. • Qurilish tebranishi chegarasiga yetganda Muqobil qurilish usullari qo'llaniladi.	
Chiqindilar	Qurilish ishlari, shu jumladan qurilish lagerlari faoliyatidan chiqindilar hosil bo'lishi kutilmoqda. Ekspluatatsiya bosqichida kutilayotgan chiqindilarning yagona manbai transport harakatidir. Qurilish bosqichida qattiq/suyuq va xavfli chiqindilarni noto'g'ri boshqarish va olib tashlash tuproq, yer usti va yer osti suvlarining mahalliy ifloslanishiga olib kelishi mumkin bo'lgan potentsial ta'sirlardir. Bundan tashqari, ekspluatatsiya bosqichida yangi yo'l bo'yida va	**Qurilish-oldi bosqichi** • Chiqindilarni boshqarish rejasi Loyihaning qurilish bosqichida chiqindilar ta'sirini cheklash bo'yicha chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. • Loyiha bo'yicha to'liq tadqiqot va asbest tadqiqoti, shu jumladan quvurlar va binolarda asbest bor-yo'gligini tekshirish uchun olib boriladi. **Qurilish bosqichi** • Chiqindilarni to'g'ri saqlash, maksimal darajada qayta ishlatish va qayta ishlash va yaroqsiz chiqindilarni o'z vaqtida olib tashlash. • Chiqindilarni boshqarish masalalari bo'yicha xodimlarni muntazam ravishda o'qitishni ta'minlash. • Barcha qayta ishlanadigan chiqindilar manbani o'zida saralanadi va qayta ishlashga yuboriladi. • Lager hududlarida septik sig'imlarni ta'minlash.	Ahamiyatga ega qoldiq ta'sirlar yo'q

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	qolgan joylarda axlat to'planishi mumkin. Mahalliy aholi yashash punktlari, qishloq xo'jaligi yerlari va umuman atrof-muhit bu ta'sirlarga uchrashi mumkin.	• Maishiy chiqindilarni qopqoqli konteynerlarda to'plash. • Maishiy chiqindilarni eng yaqin axlat poligoniga olib tashlash. • Chiqindilarni boshqarish rejasiga muvofiq xavfli chiqindilarni to'g'ri boshqarish. **Ekspluatatsya bosqichi** • Yo'l trassasidagi chiqindilar yo'lga texnik xizmat ko'rsatish guruhlari tomonidan rejali texnik xizmat ko'rsatish vaqtida olib tashlanadi.	
Yo'l harakati va transport	Yo'ldan foydalanishning cheklanishi va vaqtinchalik foydalanish mumkin emasligi tadbirkorlik obyektlari daromadlarining kamayishiga, ushbu savdo binolari ishchilarining ish o'rinlarini yo'qotishiga, muqobil yo'llar va qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan foydalanish hisobiga mahalliy aholi xarajatlarining oshishiga olib kelishi mumkin. Boshqa potentsial ta'sirlarga baxtsiz hodisalar xavfining oshishi, kommunal xizmatlar va madaniy meros obyektlarining shikastlanishi, yo'l sharoitlarining yaxshilanishi tufayli transport oqimining ko'payishi kiradi.	**Loyihalashtirish bosqichi** • Yo'l harakatida uzilishlarga olib keladigan yo'l ishlarini minimallashtirishi mumkin bo'lgan optimal yakuniy yo'l loyihasini ko'rib chiqish. **Qurilish-oldi bosqichi** • Minimal uzilishlar va kechikishlarni ta'minlaydigan transport oqimini nazarda tutadigan Yo'l harakati boshqaruvi rejasi ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi. • Qurilish-oldi bosqichidagi uzilishlar va xavflar haqida ogohlantirish uchun aholi bilan muloqot tadbirlarini o'tkazish. • Jamoat transportidagi uzilishlar yaqin atrofdagi muqobil bekatlar va olib ketish joylari bilan birga e'lon qilinadi. • Loyiha qurilishi bilan bog'liq bo'lishi mumkin bo'lgan yo'l infratuzilmasiga yetkazilgan zararni baholash. • Haydovchilarning axloq qoidalarini ishlab chiqish. **Ekspluatatsiya bosqichi**	O'rta Ahamiyatga ega emas (transport oqimining oshishi)

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
		• O'zbekiston qoidalariga muvofiq tezlik, yo'l belgilari, ko'rinadigan belgilar va boshqalar kabi yo'l harakatini nazorat qilish choralari. **Monitoring** • Qurilish va ekspluatatsiya bosqichlarida ortib borayotgan yo'l harakati va transport ta'siri monitoringini o'tkazish.	
Yerni olib qo'yish va tirikchilikni tiklashga ta'sirlar	Yerni olib qo'yish (doimiy va vaqtinchalik) quyidagi retseptorlarga ta'sir qilishi mumkin: • Uy-joylar • Tijorat obyektlari • Daraxtlar va qishloq xo'jaligi ekinlari • Madaniy meros obyektlari • Kommunal xizmatlar/infratuzilma. Asosiy kutilayotgan ta'sirlarga quyidagilar kiradi: • Yo'ldan foydalanishni cheklash (vaqtinchalik) tufayli savdo va qishloq xo'jaligi retseptorlari daromadlarining pasayishi. • Daraxtlar va ekinlarni yo'qotish • Jismoniy ko'chish	**Loyihalashtirish bosqichi** • Iloji boricha barcha obyektlarga ta'sir qilmaydigan Loyiha loyihasini amalga oshirish (jumladan, sezgir hududlar atrofidagi buffer zonalar). • Loyihaning yerni olib qo'yish va ko'chirish bilan bog'liq javobgarlikni belgilaydigan tirikchilik manbalarini tiklash rejasi/ko'chirish bo'yicha harakatlar rejasini tayyorlash. **Qurilish-oldi bosqichi** • Qurilish boshlanishidan oldin tirikchilik manbalarini tiklash rejasi/ko'chirish bo'yicha harakatlar rejasiga muvofiq yerni olib qo'yish va ko'chirish bo'yicha barcha talablarni bajarish. **Qurilish bosqichi** • Loyihani ishlab chiquvchi loyihani qurish bosqichida ShHMni loyiha ta'siriga uchragan shaxslar va mahalliy aholi uchun amalga oshirishi shart. **Monitoring** • Qurilish bosqichida yerni olib qo'yish va tirikchilik manbalarini tiklashga ta'sirlarni monitoring qilish.	O'rta Yuqori (daraxtlar)

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	• Madaniy meros obyektlari va kommunal obyektlarni boshqa joyga ko'chirish.		
Ijtimoiy-iqtisodiy va gender jihatlari	Qurilish bosqichida sezgir retseptorlar asosan rezidentlar va ularning ijtimoiy-iqtisodiy faoliyati, xususan, yo'ldan kirish yo'li sifatida foydalanish bilan bog'liq harakat, tadbirkorlik faoliyati, kundalik faoliyati va boshqalar bo'ladi. Ushbu xavflar va ta'sirlarga quyidagilar kiradi: harakatni cheklash natijasida daromadlarning kamayishi, tijorat obyektlari xodimlarining ish joylarini yo'qotishi, muqobil yo'llardan foydalanish tufayli xarajatlarning ko'payishi. Qurilish bosqichida ishchilarga talab yuqori bo'lganligi sababli qishloq xo'jaligi mahsulotlarining narxi oshishi mumkin. Erkaklarga qaraganda ayollar ijtimoiy zaif guruh sifatida ko'proq ta'sirga uchrashi mumkin. Ekspluatatsiya bosqichida hech qanday ta'sir kutilmaydi.	**<u>Qurilish-oldi bosqichi</u>** • Qurilish bosqichi uchun ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (Q-EIBR) quyidagilarni o'z ichiga oladi: ○ yo'lning turli uchastkalarida qurilish bosqichlari uchun reja. Shunday qilib, mavjud 84 kilometrli yo'l bo'ylab daromadlarni, ish joylarini yo'qotish va muqobil yo'ldan foydalanish bilan bog'liq xarajatlarning oshishi bilan bog'liq xavf baland darajada bo'lmaydi. ○ jinsiy zo'ravonlikka oid siyosat va tegishli, beg'araz tarzda shikoyatlarni ko'rib chiqish va tekshirish tizimi; ○ erkaklar va ayollar alohida turar-joylarini, jinslar uchun alohida hojatxonalar va tahoratxonalarni ta'minlash choralari. **<u>Qurilish bosqichi</u>** • Q-EIBR amalga oshirilayotganda, iloji boricha, birinchi navbatda mahalliy aholini ishga olish kerak. Shuningdek, Loyiha doirasida ishga joylashishdan oldin ish joyida o'qitish masalasini ko'rib chiqish kerak. **<u>Monitoring</u>** • Qurilish bosqichida Loyihaning ijtimoiy-iqtisodiy va gender jihatlari bo'yicha har chorakda monitoring o'tkazish.	Past

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
Aholining salomatligi, xavfsizligi va uni himoya qilish	Qurilish bosqichida sezgir retseptorlar asosan aholi, xususan, mahalliy maktablar va bolalar bog'chalariga qatnaydigan bolalar bo'ladi. Ushbu xavf va ta'sirlar quyidagilardan iborat, lekin ular bilan cheklanmagan holda: • Qurilish transporti harakatidan yuzaga keladigan chang, shovqin va tebranish • Ishchilar oqimi tufayli kasalliklarning ko'payishi • Og'ir qurilish texnikasi va transport vositalarining ishlashi va harakati • Vaqtinchalik ishchi kuchi oqimi mahalliy xizmatlarga tanglik keltirib chiqaradi • Aholi a'zolari va ishchi xodimlar o'rtasidagi ziddiyatlar Yo'l maydonchasi bo'ylab aholi uchun kirish.	**<u>Loyihalashtirish bosqichi</u>** • Yakuniy yo'l loyihasi aholi yashash punktlari va kommunal xizmatlarning yaqin joylashuvini hisobga olgan holda tasdiqlanishi kerak. **<u>Qurilish-oldi bosqichi</u>** • Qurilish bosqichi uchun ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi (Q-EIBR): ○ Loyihaning qurilish bosqichida aholiga turli ta'sirlarni minimallashtirish bo'yicha amalga oshiriladigan harakatlarni batafsil bayon qiladi. ○ kommunal infratuzilmaning shikastlanishi yoki buzilishining oldini olish uchun profilaktika usullarini o'z ichiga oladi. ○ aholini ishchilar va ishchilar oqimi ta'siridan himoya qilishning barcha jihatlarini ko'rib chiqadi. • Maktablarda Xavfsizlik bo'yicha alohida treninglar o'tkazilishi kerak. • Favqulodda vaziyatlarni boshqarish rejasi – favqulodda vaziyatlar xavflarini kamaytirish yo'llari haqida batafsil ma'lumot berish. **<u>Monitoring</u>** • Har chorakda qurilish va ekspluatatsiya bosqichlarida loyihaning aholing salomatligi, xavfsizligi va uni himoya qilish jihatlari monitoringini olib borish.	Ahamiyatga ega emas (aholining ijtimoy zaif qatlamlari uchun salomatlik va xavfsizlik muammolari) Past
Yo'l harakati xavfsizligi	Yo'l harakati xavfsizligi quyidagi potentsial ta'sirlarga uchraydi: • Xavfli loyihalar • Tasdiqlangan Yo'l harakati boshqaruvi rejalarning yo'qligi • Yuqori tezlik	**<u>Loyihalashtirish bosqichi</u>** • Pudratchi batafsil loyihaning yo'l harakati xavfsizligi auditi mustaqil va malakali auditorlik guruhi tomonidan o'tkazilishini ta'minlaydi. • Pudratchi Yo'l harakati boshqaruvi rejalari (YoHBR) to'plamini tayyorlaydi. **<u>Qurilish bosqichi</u>**	

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	• Piyodalar uchun qulayliklar yo'qligi (yoki kerakli yo'llarning yopilishi) • Avtomobillar yo'lning chetiga chiqib ketib avariyaga uchrashi Yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash uchun jiddiy choralar ko'rilmasa, tezlikni oshirish jiddiy va o'limga olib keladigan halokatlarning oshishiga olib kelishi mumkin. Sezgir retseptorlar asosan yo'l ishchilari va yo'ldan foydalanuvchilar (qurilish bosqichi), shuningdek, avtotransport vositalari haydovchilari va piyodalar (ekspluatatsiya bosqichi) bo'ladi.	• Pudratchi har bir ish maydonchasi uchun tasdiqlangan Yo'l harakati boshqaruvi rejasini belgilanishini ta'minlashi kerak. • Ishlatiladigan barcha yo'l belgilari metal plastinkada aks ettiruvchi qoplamaga ega bo'lishi kerak. • Ish maydonchalarida foydalaniladigan tezlik chegarasi YoHBR da belgilangan tezlikka jabob berish kerak. **Monitoring** • Loyihalashtirish, qurish va ekspluatatsiya bosqichlarida monitoring tadbirlari quyidagilardan iborat bo'ladi, lekin ular bilan cheklanmagan holda: ○ Tezlikni boshqarish ○ Piyodalar xavfsizligi - shahar va qishloq aholisi; ishchilarning xavfsizligi ○ Qurilish transport vositalarining harakati.	
Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish	Qurilish lagerlarida va yordamchi inshootlarda bajariladigan bir nechta ishlar va vaziyatlar favqulodda vaziyatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, asfalt qurilmasini ishlatishda yong'in va portlash xavfi tug'iladi. Xavfli yuklarni ortirilgan og'ir yuk tashuvchi transport vositalarining harakatlanishida ham favqulodda vaziyatlarning yuzaga kelishi xavfi mavjud.	**Qurilish bosqichi** • Favqulodda vaziyatlarda harakat qilish rejasiga (FHR) quyidagi bo'limlar kiritilgan: ○ xavfli moddalarning to'kilishi ○ neft va yoqilg'ining to'kilishi ○ yong'in, gaz sizib chiqishi va portlashlar ○ ish maydonchasidagi baxtsiz hodisalar ○ aholi o'rtasida/fuqarolik tartibsizliklari va ish tashlashlari va ○ zilzila va boshqa tabiiy xavflar. • FHRda favqulodda vaziyatlarni yo'q qilish va keyinchalik hisobot berish jarayoni batafsil bayon qilinadi va tashkiliy tuzilma belgilanadi. **Ekspluatatsiya bosqichi**	Ahamiyatga ega qoldiq ta'sirlar yo'q

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	Asosiy sezgir retseptorlar – bu Pudratchilarning xodimlari va undan pastroq darajada - mahalliy aholi.	YQ Loyihaning ekspluatatsiya bosqichi uchun FHRni tayyorlash uchun mas'uldir.	
Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik (MMX)	Ishchilarning huquqlari va sog'lig'i va xavfsizligiga kutilayotgan ta'sirlar quyidagilardan iborat: • Xavfli qurilish ishlari tufayli ishchilar salomatligi va xavfsizligi xavf ostida qolishi; • Ishchilar huquqlarining buzilishi. MMX muammolariga olib kelishi mumkin bo'lgan asosiy loyiha bilan bog'liq ishlar: • Qurilish transport vositalari va uskunalari bilan bog'liq baxtsiz hodisalar. • Shaxsiy himoya vositalarining yetishmasligi/noto'g'ri qo'llanilishi natijasida sodir bo'ladigan baxtsiz hodisalar. • Lagerlar va ish maydonchalarida sanitariya sharoitlarining yomonligi va birinchi tibbiy yordam ko'rsatilmasligi. • Balandlikdan yeqilishlar. • Elektr toki urishi.	**<u>Qurilish bosqichi</u>** Pudratchi tomonidan amalga oshiriladigan MMX bo'yicha chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo'ladi, lekin ular bilan cheklanmagan holda: • Ishchilar xavfsizligini boshqarish bo'yicha Mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik (MMX) bo'yicha rejani ishlab chiqish. • Xavfsizlik bo'yicha bir qator o'quv kurslari va uchrashuvlarini o'tkazish. • Barcha xavfsizlik vositalarni muntazam tekshirish, sinovdan o'tkazish va ularga texnik xizmat ko'rsatish. • Ishchilarni ish uchun mos keladigan shaxsiy himoya vositalari bilan ta'minlash. • Loyihani amalga oshirish jarayonida ishchilar huquqlariga rioya qilinishini ta'minlash.	Ahamiyatga ega qoldiq ta'sirlar yo'q Past (ishchilar ishtirokidagi baxtsiz hodisalar)
Qurilish lagerlari va qurilmalar	Qurilish lagerlari yerdan foydalanishning vaqtinchalik o'zgarishiga olib keladi va havo	**<u>Qurilish-oldi bosqich</u>**	Ahamiyatga ega emas

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	sifatiga ta'sir qilish va yomon sanitariya sharoitlari kabi faoliyat bilan bog'liq muammolarni tug'diradi. Potentsial ta'sirlar qurilish lagerlari, beton tayyorlash, tosh maydalash va asfalt qurilmalari va vaqtincha saqlash joylarining ishlashi tufayli yuzaga kelishi mumkin. Kutilayotgan sezgir retseptorlar - bu Loyiha lagerlari va boshqa obyektlariga yaqin joylashgan turar-joy hududlari, shuningdek, gidrologik hususiyatlar.	• Qurilish lagerini boshqarish rejasi lager va obyektlarga kirishni cheklash, lager qoidalari, ishchilarga madaniy-maishiy xizmatlarni ko'rsatish kabi jihatlarni qamrab olishi kerak. • Asfalt/Beton ishlab chiqarish qurilmalarini boshqarish rejasida asfalt/beton ishlab chiqarish qurilmalarining joylashuvini va boshqarilishini bayon etish kerak. **Qurilish bosqichi** • Qurilish lagerlari – Pudratchi maydonchadan foydalanish natijasida ahamiyatga ega ekologik yoki ijtimoiy muammolar yuzaga kelmasligini ta'minlashi kerak. • Asfalt/ Beton ishlab chiqarish qurilmalari - Pudratchi atrof muhitga ifloslantiruvchi moddalarni chiqarib tashlash va shovqin, avtomobil harakati, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik, xavfli materiallardan foydalanish kabi potentsial ta'sirlarni bartaraf etish choralarini ko'rishi shart.	
Mehnat va ishchilar turar joylari	Qurilish, ekspluatatsiya va ishdan chiqarish davridagi mehnatga potentsial ta'sirlarga quyidagilar kiradi: • Yomon mehnat sharoitlari ishchilarning farovonligiga ta'sir qiladi (shu jumladan majburiy va bolalar mehnati); • Ish joyidagi genderga asoslangan zo'ravonlik va ta'qiblar, ishchilarning farovonligiga ta'sir qiladi; • Ishchilar turar joylaridagi xavflar xavfsizlik masalalari bilan bog'liq,	**Qurilish-oldi bosqichi** • Mahalliy aholini ishga olish siyosatini joriy etish uchun mehnat va xaridlar rejasini tayyorlash. • Ishchilar uchun turar joylarini joylashtirish qoidalarini belgilash uchun ishchilar turar joylarining rejasini tayyorlash. **Qurilish bosqichi** • Iloji bo'lsa, birinchi navbatda mahalliy aholi a'zolarini ishga qabul qilish. • Iloji bo'lsa, birinchi navbatda mahalliy aholidan tovarlarni xarid qilish. • Subpudratchilar va ishchilar uchun Loyihaning ekologik talablari bo'yicha maxsus yo'riqnomalar o'tkazish.	Past

Ekologik va ijtimoiy jihat	Ta'sirning qisqacha mazmuni	Yumshatish va monitoring chorasining qisqacha mazmuni	Qoldiq ta'sirning ahamiyati (yumshatish choralari qo'llanilganidan so'ng)
	masalan, har yili tibbiy ko'rikdan o'tish, sanitariya va gigiena normalari va boshqalar. Mahalliy aholi va tijorat obyektlari sezgir retseptorlar hisoblanadi.	• Mahalliy aholini joylarida qurilish boshlanishidan oldin kommunal xizmatlarning vaqtinchalik joylashuvi va yo'l qurilishining potentsial ta'siri haqida xabardor qilish kerak. **Monitoring** • Qurilish davrida har oyda bir marta mehnat va xarid qilish va ishchilarning turar joyi monitoringini o'tkazish.	
Kumulyativ ta'sirlar	Asosiy kumulyativ ta'sirlar yo'l harakati ko'payishiga, xususan, ekspluatatsiya bosqichidagi shovqin darajasining oshishiga taalluqlidir. Havoning sifati avtomobil chiqindilari hisobiga biroz buzilgan bo'lishi mumkin, lekin chang sezilarli darajada kamayadi.	Kumulyativ ta'sirlarni yumshatish choralari shovqin va havo sifati bo'limida bayon qilingan.	Yo'q
Transchegaraviy ta'sirlar	Loyiha transchegaraviy Amudaryo daryosini kesib o'tadi. Qurilish maqsadlarida daryodan har qanday suv olish daryo oqimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Daryodagi ishlar daryoda loyqalikning oshishiga va daryoning potentsial ifloslanishiga olib kelishi mumkin.	Daryoning ifloslanishini oldini olish masalasi "Gidrologiya" bo'limida muhokama qilinadi.	Yo'q

6. Ekologik va ijtimoiy boshqaruv

6.1 Ekologik va ijtimoiy boshqaruv rejasi

Loyiha uchun EITB talablarini doimiy ravishda amalga oshirishni qo'llab-quvvatlash uchun EITBning doirasida EIBR mexanizmi tayyorlangan. (EIBRning V jildi). EIBR maqsadlari quyidagilardan iborat:

- Qurilish va ekspluatatsiya bosqichi uchun YQ va Pudratchilarning ekologik va ijtimoiy boshqarish tizimining (EIBT) talab qilinadigan tarkibiy qismlarini aniq bayon etish.
- Loyihalarni amalga oshirish uchun YQ korporativ tuzilmasining umumiy ko'rinishini taqdim etish.
- Talablarga rioya etish majburiyatlarini tasdiqlash.
- EIBR maqsadlarini belgilash (qurilish va ekspluatatsiya).
- EIBR talablarini amalga oshirish uchun vazifa va javobgarliklarni belgilash.
- Salohiyatni oshirish va o'qitishga qo'yiladigan talablarni belgilash (barcha tomonlar).
- Tekshiruv, audit va hisobot berish uchun minimal talablarni belgilash.

6.2 Mas'ul organlar haqida qisqacha ma’lumot

Tegishli mas'ul organlarning haqida qisqacha ma’lumot 2-jadvalda keltirilgan.

3-jadval: Loyihani qo’llab-quvvatlovchi va mas'ul tashkilotlar

Tashkilot	Loyihada bajaradigan vazifasi	Kimga bo’ysunadi
YQ	Kredit oluvchisi, Loyihani ishlab chiqish va amalga oshirish uchun mas'ul. Yerni olib qo’yishning butun jarayoni uchun javobgar. Shuningdek, ekspluatatsiya va texnik xizmat ko'rsatish uchun javobgar.	Hukumat YeTTB
DAI	Yo'l harakati xavfsizligi uchun mas'ul va taklif qilingan yo'l harakati xavfsizligi choralarini tasdiqlashi kerak.	Hukumat
Viloyat hokimliklari	Loyiha uchun yerlarni doimiy va vaqtincha olib qo’yish jarayonida YQga yordam ko’rsatadi. Mahalliy aholi yashash punktlari bilan hamkorlik qiladi.	YQ
Turli vazirliklarning hududiy boshqarmalari	Loyiha uchun ruxsatnomalar, turli qurilish ishlari uchun ruxsatnomalar berish.	Vazirliklar
YeTTB	Ehtimolli Loyiha moliyalashtiruvchisi	YeTTB Boshqaruvi
Loyihani boshqarish guruhi	Loyihaning qurilishini umumiy nazorat qilish. Shartnoma shartlari va jadvaliga muvofiq pudratchilarni tanlash va nazorat qilish.	YeTTB, YQ

Maslahatchilar	O'rganishlar va tadqiqotlar.	YQ, YeTTB
Qurilish pudratchilari	Jalb etilgan har bir tegishli uchastka bo'yicha tender spetsifikatsiyalariga muvofiq yo'l qurilishi uchun javobgardir.	YQ, Loyihani boshqarish guruhi

6.3 Ekologik va ijtimoiy harakatlar rejasi

EITB va EIBRda bayon etilgan asosiy majburiyatlar kredit shartnomasiga ilova qilinadigan Kreditorning Ekologik va Ijtimoiy Harakatlar Rejasiga (EIHR) kiritiladi. EIHRda atrof-muhit va ijtimoiy ta'sirlarni yumshatish va monitoring qilish choralari, ularni muvaffaqiyatli amalga oshirish mezonlari va Loyihaning qurilish-oldi, qurilish va ekspluatatsiya bosqichlarida amalga oshirilishi kerak bo'lgan tashkiliy chora-tadbirlar bayon etiladi.

YQning Loyihani boshqarish guruhi va Pudratchisi EIHRda loyihani amalga oshirish va tashkil etishdagi har qanday o'zgarishlar aks etilganini ta'minlash maqsadida, uni talab qilingan hollarda muntazam ravishda ko'rib chiqadi va yangilaydi.

YQning ekologik va ijtimoiy auditi davom etmoqda. Audit yakunlanganidan so'ng EIHR unga muassasalar miqiyosida zaruriy harakatlarni kiritish uchun yangilanadi.

6.4 EIMMXT va boshqarish rejalari

Loyiha ekologik, ijtimoiy, mexnatni muhofaza qilish va xavfsizlikni boshqarish tizimi (EIMMXT) YQning Loyihani boshqarish guruhi tomonidan tayyorlanadi. EIMMXT Qurilish pudratchilarining boshqaruv tizimlari uchun asos yaratadi va shu bilan barcha pudratchilar umumiy standartga rioya qilishlarini ta'minlaydi. EIMMXT shuningdek, ekspluatatsiyani boshqaruv rejalarini ishlab chiqish uchun asos yaratadi. Loyiha uchun ishlab chiqilishi kerak bo'lgan ekologik va ijtimoiy boshqarish rejalari quyidagilardan iborat bo'ladi:

- Vazifa va javobgarliklar;
- Qo'llaniladigan umumiy chora-tadbirlar;
- Qo'llaniladigan maydonchaga xos chora-tadbirlar
- Tekshirish va monitoring talablari, shu jumladan asboblar;
- Tekshiruvlar, auditlar va hisobotlar; va
- Nomuvofiqlik va avariya/noxush hodisalarni boshqarish tartib-qoidalari.

6.5 Yo'l harakati xavfsizligi auditi

Pudratchi CAREC yo'l harakati xavfsizligi bo'yicha texnik 1-qo'llanmasiga (Yo'l harakati xavfsizligi auditi) muvofiq, batafsil loyihashtrishning yo'l harakati xavfsizligi auditi mustaqil va malakali auditorlik guruhi tomonidan o'tkazilishini ta'minlaydi.

7. Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish va shikoyatlarni hal qilish mexanizmi

7.1 Manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilish

EITB jarayonining muhim qismi sifatida mahalliy aholi va boshqa manfaatdor guruhlar (birgalikda "Manfaatdor tomonlar" deb ataladi) bilan maslahatlashuvlar o'tkazildi. Manfaatdor tomonlar, xususan, bevosita ta'sirga uchragan mahalliy aholi bilan konstruktiv munosabatlar

o'rnatishga yo'naltirilgan manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qilishga tizimli yondashuv qo'llanildi.

Loyiha turli manfaatdor tomonlar bilan ommaviy va yakkama-yakka uchrashuvlar o'tkazdi, jumladan:

- To'g'ridan-to'g'ri ta'sirga uchragan aholi yashash punktlari (Urganch tumani, Urganch shahri, Bog'ot tumani, Xazorasp tumani, Xonqa tumani, Tuproqqal'a tumani, shuningdek Qoraqalpog'iston Respublikasi To'rtko'l tumani)
- To'g'ridan-to'g'ri ta'sirga uchragan infratuzilma obyektlari (magistral va mahalliy suv/gaz quvurlari, mavjud elektr uzatish liniyalari, sug'orish kanallari va drenaj tizimlalari, mavjud aloqa kabellari, quduqlar)
- To'g'ridan-to'g'ri ta'sirga uchragan davlat infratuzilma obyektlari (davlat maktablari, bolalar bog'chalari, poliklinikalar)
- To'g'ridan-to'g'ri ta'sirga uchragan qishloq xo'jaligi fermalari (fermalar/issiqxonalar, fermer xo'jaliklari ishchilari)
- To'g'ridan-to'g'ri ta'sirga uchragan sanoat korxonalari va tijorat obyektlari (yoqilg'i quyish shoxobchalari, kafe/oshxona/do'konlar, norasmiy biznes)
- Ijtimoiy zaif guruhlar (ayollar, yoshlar/bolalar, yo'l bo'yida ruxsatsiz savdo qiluvchi odamlar)
- Milliy davlat organlari
- Viloyat/shahar/mahalliy hokimiyat bo‘limlari
- Fuqarolik jamiyati, nodavlat tashkilotlar, tadqiqot organlari
- OAV.

Loyiha haqida ma'lumot varaqalari manfaatdor tomonlarga tarqatildi. Ommaviy yig'ilishlar o'tkazildi; shu jumladan, har bir Loyiha ta'siriga uchragan aholi yashash punktida va ijtimoiy zaif guruhlar (ayollar, bolalar va ishsiz yoshlar, qariyalar yoki nogironlar, savodsiz yoki qisman savodsiz shaxslar) bilan alohida yeg'ilishlar o'tkazildi; va tegishli nodavlat tashkilotlarga xatlar yuborildi. Bundan tashqari, bir qator hokimiyat va davlat organlariga pochta/telefon orqali murojaat qilindi.

7.2 Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi

Loyiha bilan bog'liq shikoyatlar yeg'ilishlar, Loyiha maydoniga tashriflar paytida, telefon qo'ng'iroqlari orqali va yozma shaklda (matnli xabarlar, elektron pochta, mobil ilovalar, yozma so'rovlar va boshqalar) bildirilishi mumkin. Har qanday aloqa vositasi orqali shikoyat qabul qilinganda, u shikoyatlar jurnaliga kiritiladi. Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlari ma'lumotlarning, shu jumladan barcha murojaat etuvchilarning shaxsiy ma'lumotlarining qat'iy maxfiyligini ta'minlaydi. Xohishga qarab, shikoyatchilar o'z shikoyatlarini anonim tarzda yuborishlari mumkin. Shikoyat qabul qilinib, ro‘yxatdan o‘tkazilganidan so‘ng, arizachi ikki kun ichida, shu jumladan tekshirish uchun taklif qilingan muddat haqida yozma xabar oladi. Shikoyatga javob u berilgan kundan boshlab ikki hafta ichida beriladi. Shikoyatlarni hal qilishda qo'llaniladigan yondashuvlar shikoyatlarning turi, paydo bo'lish chastotasi va soniga bog'liq bo'ladi.

8. Xulosa

Loyiha EITBda belgilangan yumshatish choralarini amalga oshirish sharti bilan ishlab chiqish uchun yaroqli va milliy me'yoriy-huquqiy baza va YeTTBning (EIS 2019 y.) talablariga javob bera oladi deb hisoblanadi. EITBda belgilangan chora-tadbirlar Loyihaga ishchilarga, ta'sirga

uchragan aholi yashash punktlari va atrof-muhitga, shu jumladan yashash muhiti va muhofaza qilinishi muhim bo‘lgan turlarga salbiy ekologik yoki ijtimoiy ta'sirlar va muammolarga yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik, yoki buni ilojisi bo’lmagan taqdirda, ularni minimallashtirish, yumshatish yoki kompensatsiya qilish imkonini beradi.